



## BOLALARNI BILISH JARAYONINI RIVOJLANISHIDA QURISH, KONSTRUKSIYALASH VA MATEMATIKA MARKAZINING O'RNI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18052584>

*Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi o'qituvchisi*

**Gulomova Dilyora Iskandarovna**

**Anotatsiya:** *ushbu berilgan maqolada olarning bilish jarayonlarining rivojlanishida qurish konstruksiyalash va matematika markazining o'rnini ochib berilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida barcha guruhlarda matematika faoliyatining o'rnini yotitib berilgan.*

**Abstract:** *This article reveals the role of the construction and mathematics center in the development of children's cognitive processes, and the role of mathematics activities in all groups in preschool educational organizations is emphasized.*

**Аннотация:** *Аннотация: В данной статье раскрывается роль конструкторско-математического центра в развитии познавательных процессов детей, а также подчеркивается роль математических занятий во всех группах дошкольных образовательных организаций.*

**Kalit so'zlar:** *Bilish jarayonlari, sezgi, idrok, tafakkur, ong, tasavvur, xotira, psixika, diqqat, iroda, qurilish materiallari.*

**Keywords:** *Cognitive processes, intuition, perception, thinking, consciousness, imagination, memory, psyche, attention, will, building materials.*

**Ключевые слова:** *когнитивные процессы, интуиция, восприятие, мышление, сознание, воображение, память, психика, внимание, воля, строительные материалы.*

Bilish jarayonlari va ularning qisqacha tasnifi. Insonning sezgisi, idroki, xotirasi, tafakkuri, nutqi, xayoli, his-tuyg'ulari va irodasi psixik jarayonlar deb ataladi.

**Sezgi** – odamning tegishli sezgi organlariga moddiy olamdagi narsa va hodisalar ta'sir ko'rsatgan paytida ulardagi ayrim xossalarning aks ettirilishidan iborat bo'lgan eng sodda psixik jarayondir. O'z navbatida ularning har bir tarmoqlanish xususiyatiga ega hisoblanadi. Fanda, asosan, eng ko'p o'rganilgan tarmoq – bu ekstroreptorlar sanalib, ularga ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm-maza bilish hamda teri-tuyish sezgilari kiradi. Idrok – ayni choqda sezgi organlarga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning aks ettirilishidan iborat bo'lgan psixik jarayondir. Tasavvur – biz ilgari idrok qilgan narsa va hodisalar obrazini ayni choqda fikran qayta tiklashimizdir. Tasavvurlar idrok bilan o'xshash bo'lib, idrok asosida maydonga keladi, ammo ular, odatda, idrokka qaraganda birmuncha



xiraroq, rangsiz bo'ldi va unchalik to'liq bo'lmaydi. Xotira – o'tmish tajribalarimizda nimaiki hodisa yuz bergan bo'lsa, shuni esda olib qolish, esda saqlash va keyinchalik esga tushirish yoki tanishdir. U quyidagi psixik jarayonlardan: esda olib qolish, o'zlashtirilgan materialni esda saqlash, tanish va esga tushirishdan iboratdir. Xayol – biz ilgari idrok qilmagan predmet va hodisalarni yaratishdan iborat bo'lgan psixik jarayondir. Iroda – kishining o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun ichki va tashqi to'siqlarni harakat yordamida yengish vaqtida vujudga keladigan psixik jarayondir. Tafakkur – fakt va hodisalarni mavhumlashtirgan, umumlashtirgan holda va vositali ravishda aks ettirishdan, ular o'rtasiga aloqa hamda munosabatlarni aniqlashdan iborat bo'lgan bilish jarayonidir. Diqqat – ongning biron-bir predmet, hodisa yoki faoliyatga qaratilishi hamda to'planishidir. Ongning qaratilishi deganda obyektни tanlab olish nazarda tutiladi, ongning biron-bir narsaga to'planishi esa ana shu obyektga aloqador bo'lmagan barcha narsalarni ong doirasidan tashqarida qoldirish ma'nosini bildiradi. Nutq – kishilarning til vositasida o'zaro munosabatda bo'lish jarayonidir. “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

intellektual-anglash malakalari;

elementar matematik malakalar;

tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari guruhidagi rivojlanish markazlari

Guruhdagi rivojlanish markazlari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun judaxilma-xil bo'lib, jihozlangan rivojlanish markazlaridagi qiziqishlarini namoyon etish, atrof-olamni ixtiyoriy ravishda o'rganish, borliq- dunyoni ijodiy tasavvur etishga harakat qiladilar. Guruhdagi rivojlanish markazlari tarbiyachi uchun juda muhimdir, birinchidan, ular bolaning individualligini va maktabgacha bolaning mukammal rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda tarbiyachi uchun samarali yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi; ikkinchidan, ular bolalarni faol maqsadli va xilma-xil faoliyat turlarida ishtirok etishda keng imkoniyatlarni yaratishni ta'minlaydi; uchinchidan, rivojlanish markazlari tarbiyachiga bolalar faoliyatini tashkil qilish uchun maxsus joy sifatida xizmat qiladi va ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Maktabga tayyorlov guruhda bolalarga qurish-yasashni o'rgatishdan maqsad ularda yirik va kichik-kichik qurilish materiallari, qog'oz va karton bilan ishlaganda zarur bo'ladigan qurish-yasash ko'nikma va malakalari hosil qilishdir.

Boshqa guruhlarga qaraganda maktabga tayyorlov guruhida bolalar bilan ishlashda tarbiyachi ancha katta imkoniyatlarga ega. Katta yoshdagi bolalar bu sohada birmuncha tajriba orttirgan bo'ladilar. Bolalar hali katta guruhda ekanliklaridayoq qurilish materiallaridan ba'zi qurilmalarni, masalan: qurilishning tagiga ancha og'irroq va yirikroq narsa qo'yish, uning ustini yopish, g'ishtlarni bir-biriga zichlashtirib qo'yish, qurilishga bezak buyumlarini simmetrik ravishda joylashtirish kabi eng oddiy usullarni bilib olganlar.



Ular qog'ozdan har xil buyum yasash ishlarini ham o'rganib olganlar. Bolalarning oldin hosil qilgan ko'nikmalariga tayanib, tarbiyachi bu usullardan keng foydalanadi. Bular bolalar ijodi va tashabbusiga keng yo'l ochib beradi.

Bolalar hali katta guruhda ekanliklaridayoq nimani va qanday qilib qurish lozimligi to'g'risida avval o'ylab olishni o'rgana boshlagan edilar. Maktabga tayyorlov guruhda bolalarni, qilinadigan ishning hamma tomonlarini, nima qurajaklarini, qurilishning hajmi qanday bo'lishini, qanday material talab qilinishini avval bir karra o'ylab ko'rishga o'rgatish masalasi ancha aniq va ravshan qilib qo'yiladi. Maktabga tayyorlov guruh bolalaridagi qurish-yasash va fikr yuritish faoliyatining g'oyat qimmatli tomoni o'ylaganlarini amalga oshirish uchun o'zlarining jonli kuzatishlarini jalb qilib, yasamoqchi bo'lgan qurilishlarini tasavvur eta bilishlaridir.

Ta'lim berish ta'siri ostida maktabga tayyorlov guruh bolalarida o'z faoliyatlarining natijasiga qiziqish aniq ko'rinib turadi. Agar o'rta guruh bolalari mashg'ulotlarda o'rgangan ayni bir qurilishni bir necha martalab qiziqib takrorlay berishga tayyor ekanlar, tayyorlov guruh bolalari qanchalik tajriba orttirganliklariga qarab, turli-tuman buyumlar yasashga intiladilar. Bolalar materialni turli-tuman taxlitda muvofiqlashtirib, qurish-yasashdan hosil qilingan ko'nikma va usullardan faol ravishda foydalanib, stol ustida o'ynaladigan qurilish materiallari va qog'ozdan yangi-yangi qurilishlar yasashni o'ylab chiqaradilar. Bolalarning o'z qo'llari bilan qilingan ana shunday har bir narsa ularni quvontiradi. Ijodiy qurish-yasash ishlari bolalar hosil qilgan ko'nikma va malakalarning natijasidir.

Bolalarning ijodkorligini o'stirish uchun tarbiyachi ularga to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatma bermasdan, balki biror o'yinchoqni qanday qilib yasash, biror qurilishni bino qilish haqida o'ylab ko'rishni bolalarning o'zlariga havola qilish usullaridan keng foydalanish kerak.

Maktabga tayyorlov guruh bolalariga rejali ravishda ta'lim berib borilganda ularning qurish-yasash ishlarining hammasini bilib olishga hamda bajarish mohirligiga qiziqishlari yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi. Bolalar yana ham mukammalroq qurilishni bino qilishga zo'r ishtiyoq bilan intila boshlaydilar; puxta va aniq bajarishga erishish uchun qog'ozdan ayni bir narsaning o'zini takror-takror yasay beradilar. Ular o'z ishlaridagi va o'rtoqlarining ishlaridagi kamchiliklarini tezgina payqab oladilar hamda ularni tuzatishga harakat qiladilar.

Qurilish materiallari bilan o'yin va faoliyatlar.

Qurilish materiallari bilan o'yin vafaoliyatlar olib borilayotganda tarbiyachi bolalarga ba'zan qanday qilib to'g'ri qurish yo'lini ko'rsatadi, ba'zan maslahat berib qo'ya qoladi, bolalarning diqqatini ayrim qismlarning nisbatiga qaratadi. Bolalar bilan birgalikda har xil qurilishlar: uylar, teatr, klub, garaj, shiypon va hokazolarni borib ko'rishdan keng



foydalanish kerak. Suratli jurnallardan har xil qurilishlarning rasmini, foto-suratini tanlash kerak; bolalar bularni bajonidil tomosha qiladilar va ularga qarab qurilishlar yasaydilar.

Tarbiyachi bolalar yasayotgan qurilishning, sxema tarzida bo'lsa ham, rasmini chizib olishi kerak, bu uning bolalarda qurish-yasash faoliyati qanchalik o'sayotganligini bilib borishida, bolalarga yana ham durustroq rahbarlik qilishida unga yordam beradi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalarda qurish-yasash ishida binolarni badiiy jihatdan bezatish ishiga ishtiyoq zo'rligi yaqqol ko'rinib qoladi. Ular sayr va sayohatga chiqqanlarida to'plangan tasavvurlari asosida uy-joy binolarini turli-tuman qilib qurishga erishadilar. Ularning ustun, peshtoq, minora va zinapoyalar bilan har xil qilib bezatilgan bir qavatli, ko'p qavatli uylar qurayotganliklarini ko'rish mumkin. Maktabga tayyorlov guruh bolalari biror binoni barpo qilar ekanlar, uning asl buyumning o'zi bilan juda ham o'xshash bo'lishiga harakat qiladilar. Masalan, bolalar yuk tashiydigan, yengil mashina, o't o'chirish mashinalari va boshqa-boshqa avtomashinalar xilini farq qilib yasaydilar. Maktabga tayyorlov guruh bolalari yana ham turli - tuman va murakkab qurilish materiallari oladilar. Bular tarbiyachiga bolalarni turli – tuman shakllarni, detallarni bir-biri bilan tutashtirish usullarini o'rgatishga va materiallarning sifati bilan tanishtirishga imkon beradi.

Bolalarning o'yinlarida u stol ustiga terib yasaladigan qurilish materiali sifatida hamda polda o'ynash uchun ishlatiladigan qurilish materiali sifatida foydalaniladi. Bu qurilish materiali to'plamida har xil bo'laklarning juda ko'pligi bolalarning turli – tuman va murakkab qurilishlar bino qilishiga imkon tug'diradi.

Sopol konstruktor bolalarni yangi material bilan va qismlarni bir-biriga jipslashtirishning yangi usuli (bir g'ishtning uchini ikkinchisining kavagiga joylashtirish) bilan tanishtiradi.

Maktabga tayyorlov guruh bolalarining "Qurilish-qurilish" o'yinlarida "Kichik muhandis", "Ko'ko'par bino" kabi qurilish materiallarini ishlatish foydalidir. Bu materiallardan bolalar uchun qiziqarli, chiroyli, turli-tuman binolar qurib bo'ladi.

Qog'ozdan narsalar yasash.

Maktabga tayyorlov guruh bolalari bilan qog'ozdan narsalar yasashda o'rta guruhda o'tkazilgan faoliyatlar takrorlanishi mumkin, lekin bunda uslubiy jihatdan yangiliklar kiritish zarur, bunday yangi usullar tufayli bolalarning narsalar yasash ishini avj oldirishda keng imkoniyatlar tug'iladi. Bolalarning katta guruhda qog'ozdan narsalar yasash sohasida orttirgan tajribalar tayyorlov guruhda o'tkazish metodikasini murakkablashtirishga imkon beradi.

Chunonchi, albom tayyorlash maktabga tayyorlov guruh bolalari bilan quyidagi tartibda o'tkazilishi mumkin. Tarbiyachi tayyor al'bom namunasini ko'rsatadi va bolalarga uning qanday qilinganini diqqat bilan ko'rib chiqishni buyuradi, so'ngra al'bom qilish



uchun tayyorlangan qalin qog'ozdan al'bom tayyorlashni ularning o'zlariga topshiradi. Bunda tarbiyachi al'bom muqovasini qanday qilishni va uni qanaqa qog'ozdan tayyorlash kerakligini so'raydi.

Xulosa qilib aytganda, maktabga tayyorlov guruh bolalari ko'pincha qog'oz, karton va boshqa materiallardan o'z tashabbuslari bilan o'yinchoqlar yasaydilar. O'yin vaqtida yangi o'yinchoq yasash niyati tug'iladi. Bolalarning o'ynash uchun zarur bo'ladigan o'yinchoqlarni mustaqil ravishda yasab olish uchun urinishini tarbiyachi har tomonlama qo'llab-quvvatlashi lozim. Ishlash uchun sharoit yaratib berish, maslahatlar bilan yordamlashish, o'z vaqtida yordam qilish yo'li bilan ularga ko'mak berishi kerak. Bolalarni ishni qay tartibda bajarishni belgilab olishga, qanday material va ashyo-anjom kerakligi haqida o'ylab ko'rishga o'rgatish muhim masala. Tarbiyachi ish jarayonida bolalarda mustaqil ravishda tang ahvoldan qutulib chiqish malakasi hosil qiladi, o'rtoqlar bilan ishlashga, bir-biriga yordam berishga o'rgatadi. Bolalarning farosati va topqirligini o'stirish maqsadida ularga andazalar tavsiya qilinadi. Ular bu andazaga qarab nimani istasalar, o'shani yasaydilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Ilk qadam Davlat o'quv dasturi 51-bet.
2. Hasanboev J.Yu. Pedagogika nazariyasi. Ma'ruza matni. T. 2002 y.
3. Sharipova G.. Musiqa va uni o'qitish metodikasi (metodik qo'llanma). Toshkent - 2006.
4. Ki.Axlei S.. I.W. (ichring: Graduate Texts in the Mathematics. Springer. Miim li, 2009.
5. Iohii. I'. Sparks: The handbook o f Essential mathematics. Air Force Publication. March, 2006.
6. The National Strategies Primary: Numbers and Patterns. December, 2009.
7. Михайлова А., Носова Э. Д., Столяр А. А., Полякова М. Н.,